

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"



O'zDJTU rektori

I.Tuxtasinov

"7" dekabr 2023-yil



O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETIDA "REKTOR STIPENDIYASI" NI
TAYINLASH TARTIBI TO'G'RISIDA

NIZOM

Toshkent - 2023 yil

**O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida "Rektor stipendiyasi"ni
tayinlash tartibi to'g'risida**

NIZOM

I. Umumiy qoidalari

1.1 Bir o'quv yili davomida beriladigan talabalar stipendiyasi ("Rektor stipendiyasi") O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lif muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-61-sonli qarori (2-bandi 7-xatboshi) ijrosi yuzasidan iqtidorli va iste'dodli talabalarni aniqlash va rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib "O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi o'rinnlarda Universitet deb ataladi)da tahsil olayotgan iqtidorli va iste'dodli talabalarga "Rektor stipendiyasi" berish tartibini belgilaydi.

1.2. "Rektor stipendiyasi" uchun har bir yo'nalishga alohida kvotalar soni ajratiladi:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lifda xorijiy til (ingliz tili) ta'lif yo'nalishiga - 1 nafar
2. Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) – 3 nafar
3. Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) – 1 nafar
4. Filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili) – 1 nafar
5. Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz tili) – 1 nafar
6. Filologiya va tillarni o'qitish (ispan tili) – 1 nafar
7. Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili) – 1 nafar
8. Filologiya va tillarni o'qitish (yapon tili) – 1 nafar
9. Filologiya va tillarni o'qitish (koreys tili) - 1 nafar
10. Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) – 1 nafar
11. Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) – 1 nafar
12. Filologiya va tillarni o'qitish (rus tili) – 1 nafar
13. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (nemis tili) – 1 nafar
14. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (fransuz tili) – 1 nafar
15. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (italyan tili) – 1 nafar
16. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (arab tili) – 1 nafar
17. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (turk tili) – 1 nafar
18. Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili) – 1 nafar
19. O'zga tilli guruhlarda rus tili – 1 nafar
20. Tarjima nazariyasi va amaliyoti(ingliz tili) – 1 nafar
21. Xalqaro munosabatlar – 1 nafar
22. Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar – 1 nafar

- 23.Jumalistika (xalqaro jurnalistika) – 1 nafar
- 24.Siyosatshunoslik – 1 nafar
- 25.Sotsiologiya – 1 nafar
26. Madaniyatlarno kommunikatsiyalarning lingvistik ta'limoti (ingliz tili) – 1 nafar
- 27.Kechki va sirtqi ta'lim fakulteti – 1 nafar

Magistratura bosqichi uchun:

28. Ona tili va adabiyoti (rus tili) – 1 nafar
- 29.Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) – 1 nafar
- 30.Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) – 1 nafar
- 31.Adabiyotshunoslik (rus adabiyoti) – 1 nafar
- 32.Lingvistika (ingliz tili) – 1 nafar
- 33.Lingvistika (nemis tili) – 1 nafar
- 34.Lingvistika (fransuz tili) – 1 nafar
- 35.Lingvistika (ispan tili) – 1 nafar
- 36.Lingvistika (rus tili) – 1 nafar
- 37.Lingvistika (xitoy tili) – 1 nafar
- 38.Lingvistika (yapon tili) – 1 nafar
- 39.Lingvistika (koreys tili) - 1 nafar
- 40.Lingvistika (arab tili) – 1 nafar
- 41.Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili) – 1 nafar
42. Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (italyan tili) – 1 nafar
- 43.Sinxron tarjima (ingliz tili) – 1 nafar
- 44.Badiiy tarjima (ingliz tili) – 1 nafar
- 45.Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar – 1 nafar
- 46.Xalqaro jurnalistika – 1 nafar

1.3. “Rektor stipendiyasi” bakalavriat (2, 3, 4-kurs) va magistratura (2-kurs) talabalari uchun, universitet maxsus komissiya tomonidan o'tkaziladigan tanlov natijalariga ko'ra 2023/2024-o'quv yilida yanvar-iyun oylari uchun, 2024/2025-o'quv yilida sentabr-iyun oylari uchun tayinlanadi.

II. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

2.1. “Rector stipendiyasi” tanlovida ishtirok etuvchi nomzodlarga quyidagi talablar belgilanadi:

- Nomzodlar o'quv jarayonida yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan, mutaxassislik fanlami "a'llo" baholarga yoki ko'pi bilan 20 foizgacha 4 baho bo'lishi talabgomi tanlovda ishtirok etishini ta'minlaydi.

- Ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan, sohasi bo'yicha yutuqlar va ilmiy nashrlar (kamida 2 ta ilmiy maqola va 3 ta tezislar)ga ega bo'lishi;

- Tahsil olayotgan xorijiy tildan – chet tilini bilish darajasi bo'yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lishi;

- O'zbekiston tarixini bilishi;

- Davlat tilini mukammal bilishi;

Izoh: *Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar, Jurnalistika (xalqaro jurnalistika), Siyosatshunoslik, Xalqaro munosabatlar, Sotsiologiya, yo'naliishlaridagi talabgorlarning xorijiy tildan kamida B2 darajadagi sertifikatga ega bo'lishi tanlovda ishtirok etishini ta'minlaydi.

*Ayni damda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, nomli Davlat (Alisher Navoiy, Islom Karimov) va "Aleksandr Faynberg" nomli maxsus stipendiyalarini olayotgan talabalar "Rektor stipendiyasi"ga hujjat topshira olmaydi.

III. "Rektor stipendiyasi"ni belgilash tartibi.

3.1. Stipendiya soni va miqdori bakalavriat ta'lim yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari universitet Kengashining qarori hamda rektoring buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

3.2. Stipendiyani tayinlash bo'yicha universitet rektori buyrug'i asosida maxsus komissiya tuziladi.

3.3. Stipendiya sovrindorlarini rag'batlantirish universitet byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

3.4. Rektor stipendiyasi sovrindorlariga 2023/2024-o'quv yilida yanvar-iyun oylari uchun, 2024/2025-o'quv yilida sentabr-iyun oylari uchun bazaviy stipendiyaning ikki barobari miqdorida beriladi.

IV Tanlovni o'tkazish

4.1. "Rektor stipendiyasi"ni tanlovi ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinch fakultet bosqichi, ikkinchi universitet bosqichi.

4.2. **Fakultet bosqichi 5-15-dekabr kunlari tashkil etiladi.**

"Rektor stipendiyasi"ga nomzodlarni saralash uchun "nomzodlarni ko'rsatish va saralash komissiyasi" tomonidan, talabgorlarning o'quv va ilmiy faoliyatini fakultetda muhokama qilish asosida amalga oshiriladi. Bunda nomzodning, ma'naviy saviyasi,

ilmiy yutuqlari va ilmiy loyihalarda ishtiroki hamda ilmiy rahbarining xulosasi inobatga olinadi.

Fakultet bosqichida talabgor "nomzodlarni ko'rsatish va saralash komissiyasi" ga quyidagi hujjat va ma'lumotlarni taqdim qiladilar:

Talabaning akademik transkriptidan ko'chirma (Kredit-modul bo'limidan tasdiqlangan shakli);

Fakultet/kafedra tavsiyanomasi;

Ilmiy (ijodiy) ish rahbarining fikr-mulohazasi;

Ilmiy ishlari (publitsistik) ro'yxati va ularning bosma nusxalari;

O'r ganilayotgan xorijiy tildan chet tilini bilish darajasi bo'yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikati;

Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar, Jurnalistika (xalqaro jurnalistika), Siyosatshunoslik, Xalqaro munosabatlari, Sotsiologiya, yo'naliishlaridagi talabgorlarning chet tilini bilish darajasi bo'yicha kamida B2 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatsertifikat;

"Nomzodlarni ko'rsatish va saralash komissiyasi" talabgorlarni fakultet Kengashida ochiq muhokoma va yashirin ovoz berish orqali ikki nafar nomzod saralab berishadi.

4.3. Universitet bosqichi 15-25-dekabr kunlari tashkil etilib, nomzodlar quyidagi hujjat va ma'lumotnomalarni taqdim qiladilar:

Ma'lumotnoma (ob'ektivka);

Fakultet Kengashi bayonnomasidan ko'chirma;

Sinov daftarchasidan ko'chirma;

Dekanat va kafedra tavsiyanomasi;

Ilmiy (ijodiy) ish rahbarining fikr-mulohazasi;

Ilmiy ishlari (publitsistik) ro'yxati va ularning bosma nusxalari;

O'r ganilayotgan xorijiy tildan C1 darajadagi sertifikat;

Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar, Jurnalistika (xalqaro jurnalistika), Siyosatshunoslik, Xalqaro munosabatlari, Sotsiologiya, yo'naliishlaridagi talabgorlarning chet tilini bilish darajasi bo'yicha kamida B2 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lishi;

4.4. Barcha hujjatlar jilda (papkada) joylangan holda taqdim etiladi. Muqovada fakultet nomi, kafedra nomi, ta'lif yo'nalishi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, kursi, guruhi va "Rektor stipendiyasi" uchun hujjatlar yig'ma jildi deb ko'rsatiladi.

4.5. Stipendiya uchun imtihon 2 ta fandan tashkil etiladi:

1. O'zbekiston tarixi fanidan biletlarda berilgan savollarga yozma javob berish. 100 ballik baholash bilan aniqlanadi.
2. Davlat tilida insho yozish (insho yozish vaqt 60 daqiqa) 100 ballik baholash bilan aniqlanadi.

4.6. Universitet maxsus komissiyasining qarori universitet Kengashida tasdiqlanadi

4.7. Stipendiyalar sovrindori bo'lgan talabalar ro'yxati universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

V. Stipendiyalarni tayinlash va talabgorlarga beriladigan imtiyozlar

5.1. Universitet Kengashining qarori talabgorlarga "Rektor stipendiyasi"ni tayinlash va to'lash haqidagi buyruqni rasmiylashtirish uchun asos hisoblanadi.

5.2. Stipendiyalar 2023/2024-o'quv yilida yanvar-iyun oylari uchun, 2024/2025-o'quv yilida sentabr-iyun oylari uchun tayinlanadi.

5.3. "Rektor stipendiyasi" tanlovida g'olib bo'lgan talabalarga universitet rektori tomonidan tasdiqlangan quyidagi guvohnoma beriladi:

"Rektor stipendiyasining sohibi".

Guvohnomalar universitetda tantanali tarzda topshiriladi.

* O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish maqsadida bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari uchun "Rektor stipendiyasi" miqdori bazaviy stipendiyaning ikki barobari qilib belgilansin.

VI. Yakuniy qoidalar

6.1. "Rektor stipendiyasi" tayinlangan g'oliblariga maxsus sertifikatlar topshiriladi hamda universitet saytida, ijtimoiy tarmoqlarda yoki OAVlarda yoritiladi.

6.2. "Stipendiya"ni tayinlash bo'yicha ariza va shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6.3. Mazkur Nizom amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda universitetning ichki xujjalari qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda qayta ishlab chiqilishi mumkin.

**“Rektor stipendiyasi” nomidagi stipendiyasiga talabgorlardan olingan imtihon
natijalarini baholash mezoni**

Talabgor fan bo'yicha mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega 90-100 ball;

Talabgor fan bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega 70-89,9 ball;

Talabgor fan bo'yicha olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega 60-69,9 ball;

Talabgor fan bo'yicha o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas 0-59,9 ball.

**“Rektor stipendiyasi” nomidagi stipendiya tanlovda ishtirok etuvchi
talabgorlarni saralash komissiyasi tarkibi**

T/r	F.I.SH	Lavozimi	Imzo
1.	I.Tuxtasinov	Rektor, komissiya raisi	
2.	O.Yusupov	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, komissiya raisi o'rinosari	
3.	M.Chutputalov	O'quv ishlar bo'yicha prorektor, a'zo	
4.	V.Sadiyev	Yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, a'zo	
5.	A.Nasirov	Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor	
6.	S.Abdullayev	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, a'zo	
7.	Z.Bazarov	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo	
8.	K.Muradkasimova	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo	
9.	F. Abdullayeva	Ilmiy-innovatsion ishlarnamalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i	
10.	X. Yuldashev	Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, a'zo	
11.	B.Eshbekov	Yoshlar masalalari, manaviyat va ma'rifat bo'limi	
12.	B.Xoshimov	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komp'aens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i, a'zo	
13.	E. Qo'ng'irotov	Institut yoshlar ittifoqi, BT etakchisi, a'zo	
14.	D.Matyoqubov	Xodimlar kasaba uyushmasi	
15.	Sh.Ismatova	Iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i, kotib	